

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIIY  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**ABDIXAKIMOV ISLOMBEK BAHODIR O'G'LI**

**O'ZBEKISTONDA KVANT HUQUQINING RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**12.00.10 – Xalqaro huquq**

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

UO‘K: 34(043.5)(575.1)

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Abdixakimov Islombek Bahodir o‘g‘li**

O‘zbekistonda kvant huquqining rivojlanish istiqbollari .....3

**Abdikhakimov Islombek Bahodir ugli**

The developmental perspectives of quantum law in Uzbekistan.....19

**Абдихакимов Исломбек Баходир огли**

Перспективы развития квантового права в Узбекистане.....35

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....40

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**ABDIXAKIMOV ISLOMBEK BAHODIR O'G'LI**

**O'ZBEKISTONDA KVANT HUQUQINING RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**12.00.10 – Xalqaro huquq**

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Yu1838.raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Gulyamov Said Saidaxrarovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Raximova Muattara Abdusattarovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Nugmanov Nugman Abdullayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi**  
**Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament**  
**tadqiqotlari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 8-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: +998 71 233-66-36 faks: +998 71 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1438-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13. Tel.: +998 71 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 23-oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 23-oktabrdagi 12-raqamli reestr bayonnomasi)



**D.N.Maxkamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi  
o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

**Sh.N.Raxmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**G.Yuldasheva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,  
yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda kvant texnologiyalarining jadal rivojlanishi ilm-fan va texnologiyalar sohasida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kvant texnologiyalariga global investitsiyalar 2035-yilga borib 35 milliard AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda. Ushbu texnologiyalar, xususan, kvant hisoblash, kriptografiya va kvant axborot nazariyasi orqali ko'plab sohalarni qayta shakllantirish va ularda yangi imkoniyatlarni ochib berish kuchiga ega. Biroq kvant texnologiyalarining murakkab va bashorat qilib bo'lmaydigan tabiati, xususan, ularning kiberxavfsizlik va ma'lumotlar maxfiyligiga tahdid solish imkoniyati, ularni huquqiy jihatdan tartibga solish zaruratini yuzaga keltiradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish bu boradagi xavf-xatarlarni ta'kidlab, shunday deydi: "Kvant hisoblash texnologiyalari kiberxavfsizlikni butkul izdan chiqarishi va murakkab tizimlarda jiddiy nosozliklar xavfini oshirishi mumkin. Biz esa hali bu borada xalqaro darajada tartibga soluvchi tizimning hatto dastlabki asoslarini ham yaratmadik.<sup>1</sup>" Shu bilan birga Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2025-yil "Xalqaro kvant ilm-fan va texnologiyalar yili" deb e'lon qilinishi ushbu yo'nalishda global muhokamalarni faollashtirishga zamin yaratmoqda<sup>2</sup>. Shunday ekan, kvant texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, ularning kiberxavfsizlik, shaxsiy hayot daxlsizligi va global infratuzilmalarga salbiy ta'sirini inobatga olgan holda, ularni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan xalqaro va milliy yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda kvant texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, turli davlatlarda kvant hisoblash tizimlarini ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish, ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini kengaytirish, kvant aloqa vositalarini sinovdan o'tkazish va kvantga asoslangan kriptografiya usullarini ishlab chiqish kabi yo'nalishlarda izchil sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Bu boradagi faoliyat nafaqat texnologik taraqqiyotga, balki milliy xavfsizlik, kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlash kabi dolzarb masalalarga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, kvant texnologiyalaridan xavfsiz va mas'uliyatli foydalanishni ta'minlash, ularni boshqarish bo'yicha xalqaro qoidalarni ishlab chiqish, mavjud qonunchilikni yangilash, shuningdek, yangi huquqiy mexanizmlarni joriy etishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni shakllantirish zarurati ortib bormoqda.

Respublikamizda ilg'or ilmiy-texnologik rivojlanish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi tomonidan raqamli texnologiyalar, kiberxavfsizlik, intellektual mulk va ilmiy-texnik hamkorlik sohasida bir qator xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilindi, bu esa kvant texnologiyalari kabi yangi texnologik yo'nalishlarni huquqiy tartibga solish, xalqaro standartlarni qo'llash

<sup>1</sup> United Nations. (2022). Secretary-General's address to the General Assembly. Retrieved from <https://www.un.org/sg/en/content/sg/speeches/2022-09-20/secretary-generals-address-the-general-assembly>

<sup>2</sup> United Nations General Assembly. (2023, Dekabr 19). Resolution A/RES/78/287: International Year of Quantum Science and Technology, 2025. United Nations Digital Library. Retrieved July 23, 2025, from <https://docs.un.org/en/A/RES/78/287>

hamda milliy kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Barqaror rivojlanishga erishish uchun biz raqamli bilimlarni va axborot texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirishimiz kerak, bu esa bizga har tomonlama rivojlanishga erishish uchun eng qisqa yo‘ldan borishimizga imkon beradi. Bugungi dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.”<sup>3</sup> Kvant texnologiyalarini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy mexanizmlar, post-kvant kriptografiya standartlari, kvant hisoblashlari sohasidagi davlatlararo hamkorlik asoslari hamda ularning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda, kvant texnologiyalari bo‘yicha xalqaro-huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va zamonaviy global texnologik tendentsiyalarga moslashish masalalarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti BMTning 1948-yil 10-dekabrda “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”, 1966-yil 16-dekabrda “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro pakt, 2001-yil 23-noyabrda “Kiberjinoyatlar to‘g‘risida”gi Budapesht konvensiyasi, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi tomonidan qabul qilingan kvant aloqasi va kriptografiya standartlari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni, “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni, 2024-yil 15-avgustda “O‘zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-293-son qarori hamda ilmiy-texnologik innovatsiyalar, kiberxavfsizlik, axborotni kriptografik himoyalash, ma’lumotlar himoyasi va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik sohaslariga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ushbu tadqiqot ishi bilan bog‘liq muammolarining xalqaro-huquqiy jihatlarini kompleks ravishda o‘rganish masalasi alohida tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Jumladan, kvant texnologiyalarini xalqaro huquqiy tartibga solish masalalarini yoritgan mamlakatimiz olimlaridan – S.Gulyamov, I.Rustambekov, S.Bozarov, A.Ubaydullayeva va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada ko‘rib chiqilgan. Mazkur masalaga S.Gulyamov ilmiy ishlarida alohida e’tibor bergan bo‘lib, kvant texnologiyalarining an’anaviy kriptografiya va ma’lumotlarni himoya qilish tizimlariga tahdid solishini hamda

<sup>3</sup> “Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomani taqdim etadi” — 22-yanvar 2020. <https://president.uz/oz/lists/view/3309>

ularni yangilab, proaktiv va moslashuvchan huquqiy mexanizmlar joriy etish zarurligini ta'kidlagan<sup>4</sup>.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining olimlari – V. B. Naumov, G. V. Stankovsky, A. V. Minbaleev, A. A. Efremov, K. S. Evsikov, M. B. Dobrobaba, S. E. Channov, E. V. Kholodnaya, T. A. Polyakova va boshqalar tomonidan masalaning xalqaro-huquqiy jihatlarini o'rganilgan. Kvant texnologiyalarining axborot xavfsizligi jihatlarini esa, V.B.Naumov, G.V.Stankovskiy, K.S.Evsikov, A.A. Efremov kabi va boshqa olimlar ham o'rganagan.

Xorijda Jek Berd, Melissa K. Griffit, Elsa B. Kaniya, Markus Vagner, Andrea Renda, Sofi Duraffur kabi xorij olimlari kvant texnologiyalarini xalqaro xavfsizlik va eksport nazorati nuqtai nazaridan huquqiy tartibga solishni o'rganagan bo'lib, xalqaro hamkorlikning mintaqaviy mexanizmini hamda mazkur sohada kvant tahdidlariga qarshi kurashda inson huquqlarining ta'minlanishi masalalariga ko'proq to'xtalib o'tishgan.

Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlari asosan kvant texnologiyalarining xalqaro xavfsizlik, eksport nazorati va strategik barqarorlikka ta'siri kabi amaliy va normativ jihatlariga bog'ishlangan bo'lib, ularning xalqaro huquqiy tartibga solinishining umumiy nazariy asoslari hamda xalqaro shartnomaviy-huquqiy mexanizmlarining tizimli tahliliga yetarlicha e'tibor qaratilmagan; shu sababli bu sohani xalqaro huquq nuqtayi nazaridan kompleks tadqiq etish dolzarb bo'lib, mavjud va yuzaga kelayotgan xalqaro shartnomalarning huquqiy asoslarini o'rganish, tahlil qilish hamda takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining "Rivojlanayotgan texnologiyalar sohasida xalqaro huquqiy asoslarni shakllantirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasida raqamli va kvant huquqi sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** kvant texnologiyalarining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi bilan bog'liq mavjud konseptual, normativ va institutsional muammolarni aniqlash, ushbu sohada xalqaro huquqning evolyutsion imkoniyatlarini tahlil qilish hamda O'zbekiston milliy qonunchiligida kvant huquqi asoslarini yaratishga oid huquqiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

kvant texnologiyalarining tarixiy shakllanishi va xalqaro huquqda kvant huquq kontseptsiyasining dastlabki shakllanish bosqichlarini huquqiy tahlil qilish;

kvant huquqi tushunchasining shakllanishi, ilmiy-nazariy asoslarini, uslubiy yondashuvlarini va ularning xalqaro huquqdagi roli va ahamiyatini aniqlash;

kvant huquqining asosiy prinsiplari (suverenitet, texnoxavfsizlik, ikki tomonlama foydalanish nazorati va boshqalar) va uning xalqaro huquq normalariga integratsiyasi yo'llarini tahlil etish;

<sup>4</sup> Gulyamov, S. (2023). Quantum Law: Navigating the Legal Challenges and Opportunities in the Age of Quantum Technologies. *Uzbek Journal of Law and Digital Policy*, 1(1). <https://doi.org/10.59022/ujldp.54>

xalqaro tashkilotlarning kvant texnologiyalarini huquqiy tartibga solishdagi institutsional mexanizmlarini tahlil qilish va ularning funksional yondashuvlarini aniqlash;

mintaqaviy tashkilotlar doirasida kvant texnologiyalar bo'yicha tartibga solish amaliyoti va ularning huquqiy modellarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

xalqaro hamkorlik formatlari (shartnomalar, kodekslar, deklaratsiyalar) orqali kvant texnologiyalarini birgalikda tartibga solish mexanizmlarini o'rganish, kelishilgan prinsiplarga asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish;

O'zbekistonning kvant texnologiyalariga oid davlat siyosatini tahlil qilish, mavjud huquqiy infratuzilmaning holatini baholash hamda kvant huquqining normativ asoslarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar berish;

O'zbekistonning xalqaro kvant huquqiy hamkorlikda ishtirok etish imkoniyatlarini tahlil qilish, ikki va ko'p tomonlama diplomatik yondashuvlarni aniqlash, huquqiy-muloqot mexanizmlarini taklif etish;

xalqaro kvant huquq normalarini O'zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilishda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha huquqiy, tashkiliy va institutsional tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyeksi sifatida** kvant texnologiyalarini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq xalqaro huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** kvant texnologiyalarini xalqaro huquqiy tartibga solishga doir xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, xorijiy davlatlarning normativ-huquqiy tajribasi, xalqaro tashkilotlarning tartibga solish faoliyati, shuningdek, huquqshunoslik fanida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tahlil etish, umumlashtirish, tizimli yondashuv, qiyosiy huquqiy, tarixiy, formal-yuridik tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xavfsizlik siyosati haqidagi, shu jumladan, tavakkalchiliklarni batafsil baholashni o'z ichiga olgan hujjat, shuningdek axborot xavfsizligini va kiberxavfsizlikni hamda to'lov xizmatidan foydalanuvchilarning himoya qilinishini ta'minlash asoslantirilgan;

kredit tashkilotlariga, to'lov tashkilotlariga, to'lov tizimlari operatorlariga, valyuta birjalariga va kredit byurolariga kiberxavfsizlikka tahdidlarning (shu jumladan bank kartalari bilan bog'liq talon-torojliklarning) oldini olish va (yoki) ularni bartaraf etish yuzasidan ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berishi hamda normativ hujjatlar qabul qilishi asoslab berilgan;

to'lov xizmatidan foydalanuvchilarning himoya qilinishini ta'minlash uchun tavakkalchiliklarni, shu jumladan firibgarlik hamda konfidensial va shaxsga doir ma'lumotlardan qonunga zid ravishda foydalanish xavflarini kamaytirish bo'yicha ko'riladigan choralarning tavsifi asoslantirilgan;

“axborotni muhofaza qilish” degan so'zlardan keyin “axborot tizimlari va resurslarining axborot xavfsizligini hamda kiberxavfsizligini ta'minlash asoslab berilgan;

huquq tizimida kvant huquqi tushunchasiga “kvant texnologiyalarini yaratish, qo‘llash, ularning transchegaraviy aylanishi hamda ulardan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, an’anaviy huquqiy institutlarga (suverenitet, yurisdiksiya, dalillar huquqi, axborot xavfsizligi) ta’sirini baholovchi va yangi huquqiy normalar, tamoyillar va mexanizmlarni o‘z ichiga olgan kompleks huquq sohasidir” degan mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kvant texnologiyalari sohasida xalqaro huquqiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida “Kvant texnologiyalari va tizimlarini yaratish hamda foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya loyihasi ishlab chiqish zaruriyati asoslangan;

kvant texnologiyalari sohasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda nazorat organlarining vakolatlarini integratsiyalash lozimligi asoslab berilgan;

kvant kriptografiyasi va kvant kommunikatsiyalari tizimlarini joriy etishda davlatlararo axborot almashishning yagona xalqaro platformasi modeli ishlab chiqish zaruriyati asoslangan;

kvant texnologiyalari sohasidagi xalqaro huquqiy hamkorlikning kontseptual asoslari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozimligi asoslangan;

kvant texnologiyalari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun mintaqaviy huquqiy hujjatlar ishlab chiqish zaruriyati asoslangan;

kvant texnologiyalari sohasida xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha xalqaro audit tizimining huquqiy asoslari yaratish lozimligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyoti, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan. Olingan natijalar amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordamni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlarining faoliyatida jinoyat-protsessual qonunchilikning tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda “Xalqaro ommaviy huquq”, “Xalqaro inson huquqlari huquqi”, “Jinoyat iqtisodiy huquq” fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot ishining nazariy asoslariga tayanish kelgusida kvant texnologiyalarining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi bilan bog‘liq yangi ilmiy izlanishlarni olib borish, kvant sohasidagi xalqaro shartnomaviy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, hamda xalqaro-huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kvant texnologiyalarini huquqiy tartibga solish sohasidagi xalqaro va milliy qonun hujjatlarini takomillashtirish, huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirish, kvant texnologiyalariga oid mavjud xalqaro huquqiy hujjatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish, ushbu sohada faoliyat

yurituvchi xalqaro tashkilotlar hamda vakolatli davlat organlarining tartibga solish va nazorat qilish sohasidagi faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlangan qonun hujjatlarini ishlab chiqishda xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

xavfsizlik siyosati haqidagi, shu jumladan tavakkalchiliklarni batafsil baholashni o'z ichiga olgan hujjat, shuningdek axborot xavfsizligini va kiberxavfsizlikni hamda to'lov xizmatidan foydalanuvchilarning himoya qilinishini ta'minlashga oid taklifi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578-sonli Qonunining 24-modda ikkinchi qismining to'qqizinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senatining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 2-oktyabrdagi 23-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi to'lov xizmatlarida kvant texnologiyalarining xavfsizlik jihatlarini tartibga solishni kuchaytirish va zamonaviy tahdidlarga qarshi huquqiy himoya mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

kredit ashkilotlariga, to'lov tashkilotlariga, to'lov tizimlari operatorlariga, valyuta birjalariga va kredit byurolariga kiberxavfsizlikka tahdidlarning (shu jumladan bank kartalari bilan bog'liq talon-torojliklarning) oldini olish va (yoki) ularni bartaraf etish yuzasidan ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berishi hamda normativ hujjatlar qabul qilishi bo'yicha taklifi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi 154-I-sonli Qonunining 12-modda birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senatining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 1-noyabr 24-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi Markaziy bankka moliya sektori subyektlarining kiberxavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiy ko'rsatmalar berish va nazorat mexanizmlarini joriy etish vakolatini berib, kvant texnologiyalari bilan bog'liq tahdidlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

to'lov xizmatidan foydalanuvchilarning himoya qilinishini ta'minlash uchun tavakkalchiliklarni, shu jumladan firibgarlik hamda konfidensial va shaxsga doir ma'lumotlardan qonunga zid ravishda foydalanish xavflarini kamaytirish bo'yicha ko'riladigan choralarning tavsifi bo'yicha taklifi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578-sonli Qonunining 22-modda uchinchi qismining o'n birinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senatining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 1-noyabrdagi 23-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi to'lov xizmatidan foydalanuvchilarning maxfiy ma'lumotlarini kvant texnologiyalari yordamida firibgarlik va noqonuniy aralashuvlardan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirib, xavfsizlik tizimini kuchaytirishga xizmat qilgan;

"axborotni muhofaza qilish" degan so'zlardan keyin "axborot tizimlari va resurslarining axborot xavfsizligini hamda kiberxavfsizligini ta'minlash haqidagi taklifi O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 4-aprelda qabul qilingan "Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'RQ-30-sonli Qonunining 4-moddasining ikkinchi xatboshisi hamda 5-moddasining ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senatining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish

qo'mitasining 2024-yil 2-oktyabrdagi 23-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi avtomatlashtirilgan bank tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash sohasini yangi kvant texnologiyalari tahdidlaridan himoyalash choralari kuchaytirib, bank tizimining kiberxavfsizligi darajasini oshirishga xizmat qilgan;

“kvant huquqi” tushunchasining mualliflik ta'rifi “Quantum Law” darsligi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat yuridik universitetining 2025-yil 15-sentyabrdagi dalolatnomasi)

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola (5 ta xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Xalqaro huquqda kvant huquqining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kvant texnologiyalarining tarixiy rivojlanishi, xalqaro huquq tizimida kvant huquqi tushunchasining shakllanishi, nazariy va metodologik asoslari hamda xalqaro huquqda kvant huquqini boshqarishga oid asosiy prinsiplar va xususiyatlar yoritib berilgan. Shuningdek, kvant texnologiyalarining xalqaro huquqqa ta'siri, mavjud huquqiy vositalarning yetarlilik darajasi va kvant texnologiyalarining noyob xususiyatlariga mos ravishda yangi huquqiy mexanizmlar ishlab chiqish zarurati tahlil etildi.

Xususan, *“Kvant texnologiyalarining tarixi va xalqaro huquqda kvant huquqining dastlabki shakllanishi”* deb nomlangan birinchi paragrafda kvant texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari va ushbu texnologiyalarning xalqaro huquq oldiga qo'yayotgan yangi vazifalari, mavjud xalqaro huquqiy tizimning mazkur texnologiyalarga nisbatan moslashish imkoniyatlari, shuningdek, yangi “kvant huquqi” tushunchasining zarurati kabi masalalar yoritib berilgan.

Dissertant kvant texnologiyalarining xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga solish uchun alohida huquqiy yo‘nalish sifatida qaralishining afzalliklarini quyidagicha belgilab beradi: Birinchidan, kvant texnologiyalarining global ta’sir doirasi an’anaviy huquqiy yondashuvlar orqali to‘liq qamrab olinmasligi va ularni tartibga solishda yangi mexanizmlar zaruriyati; Ikkinchidan, kvant texnologiyalariga xos bo‘lgan “non-locality”, “entanglement”, “superpozitsiya” kabi xususiyatlar mavjud xalqaro huquq tizimida qamrab olinmagan bo‘lib, ular uchun maxsus prinsip va qoidalarning ishlab chiqilishi talab qilinadi; Uchinchidan, kvant texnologiyalarining tezkor rivojlanishi va ularning global xavfsizlikka ta’sirining oldindan ko‘rib chiqish zaruriyati xalqaro hamjamiyat oldida yangi huquqiy yo‘nalishni yaratish zarurligini yuzaga keltiradi.

Tahlil natijasida dissertant xalqaro hamjamiyat tomonidan kvant texnologiyalarining xalqaro huquqda tartibga solinishi bo‘yicha yagona universal shartnomalarning mavjud emasligini ta’kidlaydi hamda kvant texnologiyalariga tegishli xalqaro huquqiy hujjatlar asosan mintaqaviy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilganligini keltirib o‘tadi. Dissertantning fikriga ko‘ra, xalqaro miqyosda kvant texnologiyalari bilan bog‘liq tushunchalar va mexanizmlarning yagona standartga keltirilmaligi kelgusida xalqaro huquq sohasida noaniqliklar va huquqiy nizolarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, muallif kvant texnologiyalariga oid xalqaro huquqiy tushunchalar va prinsiplarning yagona umumxalqaro standartlarini ishlab chiqish zarurligini ilgari suradi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Kvant huquqining tushunchasi va nazariy-metodologik asoslari”* deb nomlanib, unda kvant huquqining xalqaro huquq doirasidagi o‘rni, ushbu yangi yo‘nalishni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan nazariy va metodologik asoslar chuqur tahlil etildi. Tadqiqotchi kvant huquqining nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishda xalqaro huquqning mavjud umumiy prinsiplaridan tashqari, kvant fizikasining o‘ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Tadqiqotda kvant huquqi yo‘nalishini xalqaro huquqning alohida sohasiga ajratish yoki mavjud xalqaro huquq tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha olimlar o‘rtasidagi fikr-mulohazalar batafsil tahlil qilinib, dissertant o‘zining mualliflik pozitsiyasini ifodalab berdi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi *“Kvant huquqining asosiy prinsiplari va xususiyatlari”* deb nomlanib, unda kvant texnologiyalarining xalqaro huquq nuqtayi nazaridan tartibga solish uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi prinsiplari, ular orasida kvant suvereniteti, tinchlik uchun foydalanish, umumiy javobgarlik, interoperabilitet va adolatli kirish kabi asosiy prinsiplar tahlil qilindi.

Paragraf yakunida dissertant xalqaro hamjamiyat tomonidan ushbu prinsiplarga asoslangan yagona xalqaro huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmaganligini ta’kidlab, kelgusida kvant huquqining samarali amalga oshirilishi uchun xalqaro va milliy qonunchilikni uyg‘unlashtirish va bu yo‘nalishda xalqaro huquqiy asoslarni mustahkamlash zarurligi haqida xulosa qiladi.

Dissertatsiyaning **“Kvant huquqi sohasida davlatlararo hamkorlikning xalqaro mexanizmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida kvant texnologiyalarining xalqaro-huquqiy tartibga solinishida ishtirok etayotgan xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy tuzilmalar hamda davlatlararo hamkorlik mexanizmlari va ularning

samaradorligi yoritib berilgan. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlarning kvant huquqini shakllantirishdagi roli, mintaqaviy tashkilotlarning bu boradagi tajribalari va davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikning huquqiy asoslari tahlil etildi.

Xususan, "*Xalqaro darajada kvant huquqini tartibga solishning institutional asoslari*" deb nomlangan birinchi paragrafda kvant texnologiyalarini tartibga solishda mavjud xalqaro institutlarning roli, imkoniyatlari va cheklovlari, shuningdek, kelajakda ushbu institutlarni rivojlantirish yoki yangi mexanizmlar yaratish zarurati kabi masalalar yoritib berilgan.

Dissertant xalqaro tashkilotlar tomonidan kvant huquqi sohasida yagona universal xalqaro hujjatning mavjud emasligini hamda kvant texnologiyalari bilan bog'liq faoliyatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro Telekomunikatsiya Ittifoqi (ITU), Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan faqat texnik standartlar yoki me'yorlar bilan chegaralanib qolayotganini ta'kidlaydi. Muallif kvant texnologiyalarini samarali tartibga solish uchun xalqaro miqyosda maxsus huquqiy institut yoki xalqaro shartnomani ishlab chiqish lozimligi haqida xulosaga keladi.

Ikkinchi bobning "*Mintaqaviy tashkilotlar doirasida kvant huquqini tartibga solish asoslari*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida kvant texnologiyalarining tartibga solinishiga oid mintaqaviy tashkilotlar tajribasi chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotchi Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan "Quantum Flagship" dasturi hamda boshqa mintaqaviy tashkilotlarning kvant texnologiyalariga oid strategik hujjatlar va standartlarni yaratish tajribasini o'rganib chiqadi. Tahlillar asosida mintaqaviy tashkilotlar kvant texnologiyalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi va ularning huquqiy tajribalarini global darajada qo'llash mumkinligi haqida xulosa qilinadi.

Ikkinchi bobning "*Kvant huquqi sohasida xalqaro hamkorlik mexanizmlari*" deb nomlangan uchinchi paragrafida davlatlar o'rtasida kvant texnologiyalarini tartibga solish bo'yicha hamkorlik mexanizmlarining mavjud shakllari tahlil etilgan. Muallif davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik shakllarini o'rganib, kvant texnologiyalari bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmlarini quyidagi yo'nalishlarga bo'lib tahlil qiladi: kvant texnologiyalari va ular bilan bog'liq xavflar haqida axborot almashish; kvant texnologiyalari bo'yicha tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash; kvant texnologiyalarining tarqalishini nazorat qilish; noqonuniy kvant tizimlarini aniqlash va ularga qarshi choralar ko'rish; kvant texnologiyalari bilan bog'liq hodisalar yuzasidan tergovlar olib borish; dalillarni to'plash va kvant texnologiyalari bo'yicha huquqiy tartibni amalga oshirish.

Tadqiqotchi kvant texnologiyalari bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmlarini yanada samarali qilish uchun xalqaro shartnomalar va davlatlararo kelishuvlarni takomillashtirish, yangi xalqaro huquqiy standartlarni ishlab chiqish, mavjud shartnomalarning implementatsiyasini milliy qonunchilikka moslashtirish lozimligini asoslab beradi.

Paragraf yakunida dissertant O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlar asosida kvant texnologiyalari bilan bog'liq xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarurligi, milliy qonunchilikka xalqaro standartlarni implementatsiya qilish orqali kvant texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgan xavflarning

oldini olish va mamlakat manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlari haqida xulosa qiladi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida kvant huquqi konsepsiyasining shakllanishi”** deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekistonda kvant texnologiyalari bo‘yicha davlat siyosati, mamlakatda kvant huquqini shakllantirish istiqbollari, xalqaro hamkorlik uchun mavjud imkoniyatlar va xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bilan bog‘liq masalalar yoritib berilgan. Bundan tashqari, kvant texnologiyalarining huquqiy tartibga solinishiga oid mavjud qonunchilikdagi bo‘shliqlar, ularni to‘ldirish zarurati hamda milliy qonunchilikni xalqaro kvant standartlariga moslashtirish imkoniyatlari atroflicha tahlil etildi.

Xususan, *“O‘zbekistonda kvant texnologiyalar bo‘yicha davlat siyosati va kvant huquqi asoslarining yaratilishi”* deb nomlangan birinchi paragrafda O‘zbekistonda kvant texnologiyalarini rivojlantirish va ularni huquqiy jihatdan tartibga solish bo‘yicha davlat tomonidan amalga oshirilayotgan choralalar, strategiyalar va huquqiy tashabbuslar yoritib berilgan.

Dissertant O‘zbekiston Respublikasida kvant texnologiyalarini tartibga solish bo‘yicha aniq huquqiy bazaning mavjud emasligini, ammo bu sohadagi milliy qonunchilikda mavjud bo‘lgan umumiy qonun hujjatlari va me‘yoriy hujjatlar orqali bilvosita tartibga solinishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, kvant texnologiyalari uchun maxsus qonunchilik bazasini yaratish va bu yo‘nalishdagi xalqaro tajribani o‘rganish, shuningdek, ularni milliy qonunchilikka moslashtirish zarurligi haqida xulosaga keladi.

Uchinchi bobning *“Kvant huquqi sohasida O‘zbekistonning xalqaro hamkorlik imkoniyatlari va istiqbollari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida O‘zbekiston Respublikasining kvant huquqi yo‘nalishida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlari, davlatning geosiyosiy o‘rni hamda diplomatik va huquqiy salohiyati chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotchi O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy, Hindiston kabi kvant texnologiyalari bo‘yicha yetakchi davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini, shuningdek, mintaqaviy tashkilotlar va xalqaro institutlar bilan hamkorlik orqali milliy kvant qonunchiligini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish mumkinligini asoslab beradi. Paragraf yakunida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro kvant hamjamiyatida faol ishtirok etishi mamlakatning kvant texnologiyalaridan foydalanish va ularni tartibga solish bo‘yicha xalqaro huquqiy tashabbuslarda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Uchinchi bobning *“Xalqaro kvant huquqi standartlarini O‘zbekiston qonunchiligiga joriy etish masalalari”* deb nomlangan uchinchi paragrafida kvant texnologiyalariga oid xalqaro-huquqiy standartlarni milliy qonunchilikka joriy etish imkoniyatlari, bu jarayondagi mavjud muammolar va yechimlar tahlil etilgan. Muallif xalqaro huquqiy standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishda xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish va milliy qonunchilikdagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish zarurligini ta’kidlaydi. Dissertant O‘zbekistonda kvant texnologiyalarini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi maxsus qonunchilik aktlari ishlab chiqilishi,

qonunchilikka xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich implementatsiya qilish orqali huquqiy noaniqliklarni bartaraf etish mumkinligini asoslab beradi.

Paragraf yakunida dissertant O'zbekiston Respublikasi tomonidan xalqaro kvant huquqi standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali mamlakat manfaatlarini xalqaro darajada samarali himoya qilish, kvant texnologiyalari bilan bog'liq xavflarni oldini olish va davlatning xalqaro miqyosda obro'sini mustahkamlash uchun sharoit yaratilishini ta'kidlaydi.

## XULOSA

Kvant huquqi sohasida xalqaro hamkorlikni takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslarni yaratish masalalarini kompleks ravishda o'rganish va tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotning natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni quyidagi uch yo'nalishda shakllantirish maqsadga muvofiq:

**Birinchi yo'nalish – xalqaro va milliy kvant huquqiga oid nazariy qoidalarni rivojlantirish bo'yicha quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi:**

